



THE PROCESS AND ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION OF FAMILY RELATIONS IN OUR SOCIETY

Nargis Yuldashevna Razzakova

Lecturer, Department of Psychology and Sociology

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

nargisrazzakova2020@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Society, family, women, research, violence, family relations, types of family, international experience, personality, negative vices, society and family.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: The article on this topic is fully and comprehensively covered by the author. The main place is given to information on strengthening society and family. Returning to our identity, honoring our national traditions is revealed as an ancient value. The role of family and society in the life path of young people building their spiritual life and future, as well as opinions on improving their living conditions are covered. It was also emphasized that the family plays a major role in the failure to achieve the expected level of development of society under the influence of negative evils, in the creation of forces that slow down its development and lead to a crisis. Because an unhealthy family, incompetent and conflict families, an increase in the number of divorces cause various economic and social damage to society. It is analyzed based on the results of statistics on aggression, violence, discrimination and violation of women's rights, early marriages and early births.

JAMIYATIMIZDA OILAVIY MUNOSABATLARNI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI VA TAHLILI

Nargis Yuldashevna Razzakova

“Psixologiya va sotsiologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat til va adabiyot universiteti

nargisrazzakova2020@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jamiyat, oila, xotin-qizlar, tadqiqotlar, zo'ravonlik, oilaviy munosabatlar, oilani turlari, xalqaro tajriba, shaxs, salbiy illatlar, jamiyat va oila.

Annotatsiya: Mazkur mavzudagi maqola muallif tomonidan to'liq va atroflicha yoritib berilgan. Bunda jamiyat va oilani mustahkamlash bo'yicha ma'lumotlar asosiy o'rinda ko'rsatilgan. O'zligimizga qaytish, milliy urf-odatlarimizni e'zozlash azaliy qadriyat sifatida ochib berilgan. O'z ma'naviy hayotini va kelajagini qurayotgan yoshlarni hayot yo'llarida oila va jamiyatni o'rni, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi fikrlar yoritilgan. Shuningdek, salbiy illatlar tahsirida jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi katta ekanligi ta'kidlangan. Chunki, oilaning nosog'lomligi, noqobil va nizoli oilalar, ajralishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyonlar yetkazadi. Xotin-qizlarga nisbatan tajovuz, zo'ravonlik, kamsitish va haq-huquqlarini poymol etilishi, erta turmush hamda erta tug'riq bo'yicha o'rganilgan statistika natijalari asosida tahlil qilib berilgan.

**ПРОЦЕСС И АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В
НАШЕМ ОБЩЕСТВЕ**

Наргис Юлдашевна Раззакова

Преподаватель кафедры «Психология и социология»,

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Доктор философии (PhD) по социологическим наукам

nargisrazzakova2020@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общество, семья, женщины, исследования, насилие, семейные отношения, типы семьи, международный опыт, личность, негативные пороки, общество и семья.

Аннотация: Статья на эту тему полностью и всесторонне освещена автором. На главном месте отображается информация по укреплению общества и семьи. Возвращаясь к нашей идентичности, почитание наших национальных традиций раскрывается как древняя ценность. Освещены роль семьи и общества в жизненном пути молодых людей, строящих свою духовную жизнь и будущее, а также мнения по улучшению условий их жизни. Также было подчеркнуто, что семье

принадлежит большая роль в недостижении развития общества на ожидаемый уровень под влиянием негативных зол, в создании сил, которые тормозят его развитие и приводят к кризису. Потому что нездоровая семья, некомпетентные и конфликтные семьи, рост числа разводов наносят обществу различный экономический и социальный ущерб. Анализируется на основе результатов статистики агрессии, насилия, дискриминации и нарушения прав женщин, ранних браков и ранних родов.

Kirish. Ma'lumki, oila – bu murakkab ko'p qirrali, mukammal funksiyali yacheyka bo'lib, shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Uning funksiyalari nafaqat aholini ko'paytirish, balki yosh avlodni jamiyatda qabul qilingan huquqiy, ijtimoiy-madaniy, axloqiy me'yorlar asosida tarbiyalashni ham nazarda tutadi. Oila – shaxsning shakllanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvida asosiy o'rin tutadi.

Globallashuv jarayonlarida oila institutiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan migratsiya, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi oilaviy munosabatlarning o'zgarishiga, oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Bu kabi muammolarni o'rganish nihoyatda muhimdir. Jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, gender tenglik, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtiroki, nikoh va oilaviy munosabatlarga yangicha yondashuvlar mavjudligini inobatga olsak, mazkur masala yanada dolzarblashadi. Chunki, oila institutini tadqiq etish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal etish va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy munosabatlarning vujudga kelishi borasida diniy-mifologik yondashuvlar ham mavjud, ya'ni, «oila tarixi muqaddas kitoblarda keltirilishicha, Odam Ato va Momo Havodan boshlangani rivoyat qilinadi» [1]. Genetika, biologiya fanlari qonuniyatlariga ko'ra, har bir inson individual tarzda boshqa birovni takrorlamaydi. Ikki jinslar, ya'ni er va xotinning ixtiyoriy ittifoqidan oila, instituti shakllanadi. Ya'ni ajdodlar «davomchi»lari avlodlar vujudga keladi. Boshqacha aytganda, «Jamiyat shu tariqa barpo bo'lib, rivoj topadi va ijtimoiy taraqqiyot vujudga keladi» [2].

Darhaqiqat, ota-bobolarimiz qadimdan yigit-qizlarni oilada umumbashariy tuyg'ular, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Ular asrlar davomida tilimiz, urf-odat va dinimizga asosan, xalqimizni, ya'ni o'zbek millatining o'zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodni voyaga yetkazishga intilishgan. Ayniqsa, umrboqiy Sharq falsafasi asosida yaratilgan qator

mumtoz asarlar sog'lom oilani shakllantirishda asosiy mezon, jamiyat qoidasi va qo'llanmalaridan iborat pandnomalar sifatida xizmat qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jamiyatning turli davrlarida oila masalasini yoritib kelgan Sharqning buyuk mutafakkirlari – «Abu Nasr Farobiy» [3], «Abu Rayhon Beruniy» [4], «Abu Ali ibn Sino»[5], «Amir Temur» [6], «Alisher Navoiy» [7], «Rizouddin ibn Faxruddin» [8] va boshqalarning asarlaridagi oila, nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, otananing vazifalari, farzandlar burchi haqida g'oyatda ibratli maslahat va o'gitlar bayon etilgan.

Dunyoga mashhur qomusiy alloma Abu Nasr Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini «Fozil odamlar shahri» [9] asarida bayon etgani diqqatga sazovor: «Rahbarlar (er yoki xotin – N.R.) yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi» [10].

Abu Rayhon Beruniy oilaviy munosabatlar, ta'lim haqidagi qarashlari, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha «O'z qarashlarida oila tinchi bevosita aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida» [11] ekanligiga alohida urg'u bergan.

Sohibqiron Amir Temur oila qurish masalasiga davlat yumushlaridek jiddiy e'tibor berib, kelin tanlash haqida quyidagi fikrni bildirgan: «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishini davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurdim» [12].

XI-XII asrda bu borada Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Shayx Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Abduraxmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror», Koshifiyning «Axloqi muhsiniy», Jaloliddin Devoniyning «Axloqi Jaloliy», Muhammad Sa'diy Qoshg'ariyning «Odab as-solihin» kabi asarlarni xalqimizning milliy axloqi, uning, ma'naviyati, madaniyati, qadriyatini yuksaltirishda katta e'tiborga molik.

Rus olim «I.Peshperovanning fikricha, har bir mamlakatda oila va nikoh instituti din, urf-odat, madaniyat, axloq va an'ana ta'sirida shakllangan» [13]. Bunda, oilaning hayotiy sikl bosqichlarining o'zgarish qonuniyatlari, nuklear oilaning hayot siklining qisqarishi, ya'ni oila kichik guruh sifatida namoyon bo'ladi.

«I.Gerasimov, A.Xarchev, N.Shimin va boshqa rus olimlari oilada shakllangan rollarga asoslangan xulq-atvor namunalari, uning ijtimoiy tartibga solish mexanizmlariga e'tibor berishgan» [14]. Ushbu yondashuvga ko'ra, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar nikoh me'yorlari va

sanksiyalari tizimi orqali tartiblashtirilgan. Ayrim huquq va majburiyatlar yuridik xarakterga ega bo'lib, nikoh va oila to'g'risidagi qonunchilik asosida tartibga solinadi. Nikohning boshqa me'yorlari esa axloq, milliy urf-odatlar, turli udumlar masalan, nikohgacha o'zini tutish, er va xotin o'rtasida vazifalarni taqsimlash, oilaviy dam olish va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Biroq, turli an'analar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi bois ular oilaviy hayot yo'lining u yoki bu bosqichida farqlanish holati kuzatiladi. Bundan tashqari «T.Afanaseva, N.Yurkevich oilaning turli funksiyalari va uning barqarorligini ta'minlashda oiladagi o'zaro munosabatlar rolini aniqlab, tahlil qilishgani e'tiborga molik» [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Oilani tadqiq etishda institutsional yondashuvning 3 ta turi: 1) yangi institutsional; 2) noinstitutsional; 3) postinstitutsional yondashuvlar mavjud.

1. Yangi institutsional yondashuv kanadalik olimlar D.Uayt, Sh.Loer va K.Yaodenis ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, D.Uayt esa «yangi institutsional me'yorlarning oila hayotiga ta'siri hamda, migratsiya va globalizatsiya sharoitida madaniy oilaviy me'yorlarning o'zaro ta'sirlari» [16] ni tahlil qilgan.

2. Noinstitutsional yondashuv A.Chерlin va E.Burgess «deinstitutsionalizatsiya jarayonida individlarning shaxsiy hayotini tartibga soluvchi va chegaralovchi muayyan me'yorlar, madaniy va ijtimoiy tuzilmalar zaiflashishi» [17] prognoz qilingan. Boshqacha aytganda, «noinstitutsional yondashuvda asosiy urg'u individual ehtiyojlarning oshib borish tendensiyasiga e'tibor beriladi» [18]. Natijada «A.Chерlin fikricha, individuallashtirilgan nikoh paydo bo'ladi» [19]. «Mazkur jarayonga ilk bor E.Burgess nikohni institut sifatida hamkorlikka aylanishi yuzasidan ta'rif bergan» [20].

3. Postinstitutsional yondashuv oila shakllarining xilma-xilligini tan olish, ya'ni diversifikatsiyalash nuqtai nazaridan o'rganilgan. «S.Knapp va G.Vurmlar postinstitutsional yondashuv gorizonta nomutanosibliklar va ko'p o'lchamlik mezonlarini qo'llaydi. Bunda shaxs mustaqilligiga ko'p baho bermaslik kerak, chunki insonlar institutsional elementlardan turli xil ijodiy usullar yordamida munosabatlar o'rnatishadi» [21]. Boshqacha aytganda, zamonaviy oila faqat noinstitutsional individualizm belgisi emas, balki uning «transformatsiyasi», natijasida institutsional xilma-xillik rivojlanib, oilaning yangi shakllari paydo bo'ladi» [22].

Bundan tashqari, «oilani ijtimoiy tizimi, bir-biri bilan jadal munosabatlarda bo'lgan elementlar majmui hisoblanadi» [23]. «L.Bertalanfi ta'limotiga ko'ra, tizimli o'rganish nazariyasi kontekstida oilaning belgilarini ajratishga imkon berdi» [24]. Xorijlik olimlar fikricha, oilani tushunish yaxlit tizim sifatida amalga oshiriladi. Demak, tizimga sirtidan ta'sir aslida uning ichidagi har bir elementga ta'sir hisoblanib, undagi qismlar o'zgarishi boshqalariga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi.

Zero, «oila insonlarning tabiiy-biologik nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy munosabatlarga asoslangan turmush birligi va o'zaro mas'uliyat va javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruh» [25] hisoblanadi. «Oila a'zolarini umumiy turmush tarzi, mulkiy, ma'naviy va ijtimoiy munosabatlarda o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bog'lab turadi. Ya'ni oila asosini er-xotin bilan birga farzandlari, va ota-onasi, opa-singil va aka-ukalari tashkil etadi» [26]. Binobarin, oila a'zolarining qarindoshchilik munosabatlari, nikoh birligiga ko'ra, oilalar 2 turga: poligam va monogam oilalarga ajraladi.

Hozirda, oilaning ko'p tarqalgan turi nuklear oila hisoblanadi. Bunda er-xotin asosan turmush qurmagan (uylanmagan) farzandlari bilan istiqomat qiladi. Biroq, farzandi turmush qurib, o'sha oilada birga yashasa, ular murakkab oilaga aylanadi. E'tiborli jihati murakkab oilada 2 va undan ortiq oila birga yashaydi. Zero, oilada er-xotin hayotda birga yashasa – tugal yoki to'liq oila deyiladi. Biroq, ularning biri oilada yashamasa yoki vafot etgan bo'lsa, bunday oila noto'liq oila bo'ladi. Oila a'zolarining muayyan ijtimoiy guruhga mansubligiga ko'ra, ishchilar, xizmatchilar, ziyolilar, hunarmandlar oilasi va hokazolarga ajratilgan.

Tahlil va natijalar. Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasini aniqlash

SO'ROVNOMASI

Anketa-so'rovnoma (1-ilovaga muvofiq) O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2023 yilning mart-may oylarida Toshkent shahri, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Xorazm, Jizzax, Buxoro viloyatlarida o'tkazildi. Bu tadqiqotga 18 yoshdan ziyod 617 nafar respondent jalb qilindi.


1. So'ralganlarning jinsi: 46% erkaklar; 54 % ayollar.
2. So'ralganlarning yosh tarkibi: 18-24 yoshlilar – 22,2%; 25-34 yoshlilar – 23,1%; 35- 44 yoshlilar – 49,2%; 45-54 yoshlilar – 5,5%; 55 yosh va undan kattalar – 9,6%.
3. So'ralganlarning ma'lumot darajasi bo'yicha tarkibi: o'rta –33,7%; o'rta maxsus – 42,1%; oliy –24,2%.
4. Yashash maskani: a) ko'p qavatli uy (dom)da – 67 %; b) hovli uyda – 43 %.
5. Tug'ilgan joyi? a) shahar – 58 %; b) qishloq – 42 %.
6. Hozirda yashash joyi? a) shahar – 69,1 %; b) qishloq – 30,9%.
7. Turmush yili: 1-10 yil – 25,4 %; 10-20 yil – 27,9 %; 30-40 yil – 36,3 %; 40 yil va undan yuqori – 10,4 %.
8. Farzanlar soni: a) 1 nafar – 35,6%; b) 2 nafar – 32%; v) 3 nafar – 24,7%; g) 4 va undan ko'p – 7,7 %.
9. Ijtimoiy guruhi: (ijtimoiy holat ko'rsatkichlari): Uy bekalari – 24,6%; Ishchilar (zavod, fabrika, qurilish) – 6,5%; Ziyolilar – 9,6 %; Xizmatchilar – 2,7 %; Fermerlar – 9,1%; Tadbirkorlar – 12,3 %; Uyda ish qiladiganlar – 2,7 %; talabalar va o'quvchilar – 6,9%; bola

parvarishi bo'yicha ta'tilda bo'lganlar – 4,5%; nogironligi bo'lgan shaxslar – 2,9 %; vaqtincha ishga joylashmaganlar – 10,1%; nafaqaxo'rlar – 8,1%.

So'ralganlarning oilaviy ahvoli: turmush o'rtog'i bilan yashayotganlar – 94,0%; turmushi bo'lmaganlar – 9,3%; bevalar – 3,3%. So'rovning umummilliy representativligi, 3% xatolik va 97% ishonchlilik darajasida mamlakatdagi barcha hududla ichidan tasodifiy stratifikasiyalangan tanlash usuli bilan tanlab olingan. So'rovda 612 nafar respondentning javoblaridan foydalanish ta'minlandi.

1-rasm


«Sizningcha, oila instituti, deganda nimani tushunasiz?» degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma'lumot (% hisobida)



«Sizningcha, oila instituti, deganda nimani tushunasiz?» degan savolga respondentlar bergan javoblarini tahlil qilinganda, oila masalasida respondentlar juda keng va atroflicha fikr yuritib tahlil qilishi ham bu xulosa tasdig'ini topganini bildiradi. 49,8% oilaviy masalalar bilan shug'ullanish, undagi har bir vaziyatga alohida mas'uliyat bilan yondashishi aniqlangan bo'lsa, 34,6 %i – oilaga taalluqli barcha masalalar, mayda va hatto, ko'rinmas holatlarni ham oldindan bo'lsa ham hal qilishga intilishini qayd etgan. 10,8 % – Oilalarni o'qitadigan institut, bilim dargohi sifatida bilishini, 4,8% – bilmayman, degan javobni belgilashgan.

12-rasm

“Sizningcha, oila institutini shakllantirishdan maqsad nima?”, degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma'lumot (% hisobida)



«Sizningcha, oila institutini shakllantirishdan maqsad nima?», - degan savolga respondentlar: 27% – mahalla va oila institutlarini mustahkamlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni shakllantirishda ishtirok etish; 26,9% – o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha respublikadagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish degan, 23,5 % – xorijiy mamlakatlarning ilg'or ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishni qayd etishgan, 22,6 %i esa jamiyatda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyiliga asoslangan tizimni to'liq va samarali joriy etish, deb o'z munosabatlarini bildirishgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, birinchidan, 2-Rennesans davridagi Yangi O'zbekiston oilasi har bir fuqaroning kuch va iqtidorini halol mehnat qilish orqali ro'zg'orini yanada butlash, jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari samaradorligi va qudratini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar makonidir. Bunda oila iqtisodini barqarorlashtirishda tadbirkorlik, ijara, oilaviy ishlab chiqarish, kasanachilik shakllaridan oqilona foydalanib, oila byudjetini yaxshilash, turmush tarzini farovonlashtirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalar, maishiy xizmat shaxobchalari xizmatidan unumli foydalanishdan iborat. Bunda o'z fuqarolarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali inson huquq va erkinliklariga ongli munosabatni ta'minlashi, bunda milliy, umuminsoniy va demokratik tamoyillarni amalga oshiruvchi ijtimoiy institutdir.

O'zbekiston oilasi o'z intellekti, aql-zakovati va iqtidori bilan ilmiy-salohiyatdan keng va samarali foydalanish orqali innovatsion kashfiyotlar va yuksak texnologiyalarni oila barqarorligiga yo'naltiruvchi, sog'lom ijodiy muhitni ta'minlovchi makondir. Sotsiomadaniy jihatdan oila va oiladagi munosabatlar uning ijtimoiy hayotga munosabatini o'rganib, ijtimoiy ish qoidalarini asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rnini. -Toshkent. «Adolat», 2016. 5-bet.
2. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rnini. – Toshkent: «Adolat», 2016. 67-bet.

3. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. 159-65-b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tarvihalar. "Javohirot kitobi"dan. -Toshkent: "Meros", 1991. 162-b.
5. Abu Ali Ibn Sino. "Al-ishorat va at-tanbihot" (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. - B 338
6. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at, Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996-yil. 14-b.
7. Fitrat. Navoyining forsiy shoirlik'i va fors tilidagi asarlari to'g'risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: 2000. 53-b.
8. Rizouddin ibn Faxriddin. Ibn Arabi. Orenburg.: Vakt. 1912. 9-b.
9. Xayrullayev M., Muhammadjon J. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2016. 320-b.
10. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. 159-161-b.
11. Abu Rayhon Beruniy. Tarvihalar. "Javohirot kitobi"dan. -Toshkent: "Meros", 1991. 35-b.
12. Ahmedov B. Amir Temur o'g'itlari. -Toshkent: "O'zbekiston". 2007. 26-b.
13. Пешперова И.Ю. Брак и семья: традиционные и коллизионные аспекты в международном семейном праве.// «Россия в глобальном мире», 2014, №4 (27). -С.464-466.
14. Мацковский М.С. Социология семьи. Проблемы теории, методологии и методики. -М.: «Наука».1989.-С.158.
15. Афанасьева Т., Юркевич Н.Г. Этика и психология семейной жизни. – М.: «Просвещение». 1988. -С.285.
16. White J. Advancing family theories. Thousand Oaks, -CA: Sage, 2005. -216 p.
17. Burgess E.W. The family as a unit of interacting personalities. The Family, 1926. - P. 7; Thomas W. I., Thomas D. S. The child in America: Behavior problems and programs. New York, 1928;Waller W. The family: A dynamic interpretation. New York: Dryden, 1938; Komarovskiy M. Unemployed men and his family. New York: The Dryden Press Inc., 1940; Komarovskiy M., Waller W. Studies of the family// American Journal of Sociology. 1945. May. № 50.
18. Гурко Т.А. Теоретические подходы к изучению семьи. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: Ин-т социологии РАН, 2016. – 210 с.
19. Cherlin A.J. Degrees of change: An assessment of the deinstitutionalization of marriage thesis // Journal of Marriage and Family. 2020. Vol. 82. No.1.-P.62-80.

20. Burgess E.W., Locke H.J. The family: From institution to companionship. -New York: American Book, 1945. — 800 p.
21. Knapp S.J., Wurm G. Theorizing family change: A Review and Reconceptualization // Journal of Family Theory & Review. 2019. Vol. 11. No.2.-P.4-19.
22. Голод С.И. Стабильность семьи: социологический и демографический аспект. –Лелинград: «Наука», 1984. –136 с; Гурко Т.А. Трансформация института современной семьи // Социологические исследования. 1995. №10.–С.95-99; Шу муал. Новые семейные формы: тенденции распространения и понятия // Социологические исследования. 2017. №11. -С.99-110.
23. Лидерс А.Г. Семья как психологическая система. -М.: «Обнинск» 2004. – С.296.
24. Берталанти Л. Общая теория систем - критический обзор // Исследования по общей теории систем / Под ред. В.Н. Садовского, Э.Г.Юдина. -М.: «Наука», 1969. -С.278.
25. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 7-noyabr 2014-yil.
26. Otaxo‘jaev F.M. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va oila. –Toshkent: TDYuI, 2002. 32–b.